

## TIJORAT BANKLARIDA KOMPLAYENS NAZORAT TIZIMINI TASHKIL ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI

**Tuychiyev Alisher Jurayevich**

Alfraganus University professori, i.f.d.

E-mail: [doctortuychiyev@yandex.com](mailto:doctortuychiyev@yandex.com)

ORCID: 0009-0004-3860-515X

**Kurbanbayeva Zuxra Abduraxmon qizi**

BMA magistranti

E-mail: [zuhraabduvaliyeva07@gmail.com](mailto:zuhraabduvaliyeva07@gmail.com)

ORCID: 0009-0003-5268-2269

### Annotatsiya

Maqolada tijorat banklarida komplayens nazorat tizimini tashkil etishning huquqiy asoslari yoritilgan. Korrupsiyaga qarshi kurashishda milliy va xalqaro tajribalar tahlil qilinib, Prezident farmonlari va normativ-huquqiy hujjatlar asosida tizimli choralar ko‘rib chiqilgan. Komplayens nazoratining joriy etilishi banklar faoliyatining shaffofligini ta’minlash, xavf-xatarlarni kamaytirish hamda korporativ boshqaruvni takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlanadi.

**Kalit so‘zlar:** komplayens nazorat, tijorat banklari, korrupsiyaga qarshi kurashish, huquqiy asoslar, korporativ boshqaruv, normativ-huquqiy hujjatlar, Bazel standartlari, ichki audit, xavf-xatarlarni boshqarish, shaffoflik.

### Аннотация

В статье рассмотрены правовые основы организации системы комплаенс-контроля в коммерческих банках. Проанализированы национальные и международные подходы к борьбе с коррупцией, а также системные меры, принятые на основе указов Президента и нормативно-правовых актов. Подчеркивается, что внедрение комплаенс-контроля играет важную роль в обеспечении прозрачности деятельности банков, снижении рисков и совершенствовании корпоративного управления.

**Ключевые слова:** комплаенс-контроль, коммерческие банки, борьба с коррупцией, правовые основы, корпоративное управление, нормативно-правовые акты, стандарты Базеля, внутренний аудит, управление рисками, прозрачность.

### Abstract

The article examines the legal foundations of establishing a compliance control system in commercial banks. It analyzes national and international approaches to combating corruption and reviews systemic measures implemented through Presidential decrees and regulatory acts. The study highlights that introducing compliance control is crucial for ensuring transparency in banking operations, mitigating risks, and enhancing corporate governance practices, contributing to overall institutional effectiveness and stability.

**Keywords:** compliance control, commercial banks, anti-corruption, legal framework, corporate governance, regulatory acts, Basel standards, internal audit, risk management, transparency.

## KIRISH

So‘nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida shaffoflikni ta‘minlash hamda qonun ustuvorligini mustahkamlash masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Bu jarayonda tijorat banklari faoliyatida zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, ichki nazorat tizimini kuchaytirish va, ayniqsa, komplayens nazorat tizimini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki bank tizimi mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi va moliyaviy bozorlarda ishonch muhitini yaratishda asosiy poydevor hisoblanadi.

Komplayens nazorat tizimi — bu bank faoliyatida qonunchilik talablariga, ichki qoidalarga va korporativ standartlarga rioya etilishini ta‘minlash, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni oldindan aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuidir. Ushbu tizimni joriy etish orqali banklarda shaffoflikni ta‘minlash, moliyaviy xatarlarni kamaytirish hamda mijozlar va investorlar ishonchini oshirishga erishish mumkin. Shu bois O‘zbekiston Respublikasida komplayens nazorat tizimini huquqiy jihatdan mustahkamlash va uning samarali ishlashini ta‘minlash davlat siyosatida ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida korrupsiyaning taraqqiyotga salbiy ta‘siriga alohida e‘tibor qaratildi. Unda ta‘kidlanganidek, korrupsiyaga qarshi kurashish choralari davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan 2020-yil 29-iyunda PF-6013-son “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonda barcha davlat organlari va xo‘jalik boshqaruvi subyektlarida, shu jumladan bank muassasalarida ham korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimini joriy etish vazifasi belgilandi.

Xorijiy tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda banklar faoliyatida komplayens nazorat tizimi qonunchilikka muvofiq ishlash, korporativ boshqaruv standartlariga rioya qilish va moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashda asosiy mexanizm sifatida xizmat qiladi. Bazel qo‘mitasining bank nazorati bo‘yicha tavsiyalari ham komplayens tizimini bank boshqaruvining ajralmas qismi sifatida belgilaydi. Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, banklarda komplayens tizimini joriy etish nafaqat ichki nazorat funksiyalarini kuchaytiradi, balki jinoiy faoliyatdan tushgan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish va mijozlar huquqlarini himoya qilishda ham muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekistonda bank tizimida komplayens nazoratni joriy etishning huquqiy asoslari bir qator qonun va me‘yoriy hujjatlar bilan belgilangan. Jumladan, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunga kiritilgan o‘zgartishlar, Prezidentning bank tizimini isloh qilish bo‘yicha

qabul qilgan farmon va qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari ushbu yoʻnalishdagi islohotlarning huquqiy poydevorini shakllantirdi.

Shunday qilib, tijorat banklarida komplayens nazorat tizimini joriy etish mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va bank sektori barqarorligini taʼminlashga qaratilgan kompleks islohotlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu maqolada ushbu masalalar huquqiy va amaliy jihatdan yoritilib, tizim samaradorligini oshirish boʻyicha takliflar ishlab chiqiladi.

### **ADABIYOTLAR SHARHI**

Korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat va jamiyat institutlari ishtirokini kuchaytirish masalasi bir qator normativ-huquqiy hujjatlarda oʻz ifodasini topgan. Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda qabul qilingan qarorida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga koʻmaklashgan shaxslarni ragʻbatlantirish tartibi belgilangan boʻlib, bu tizim samaradorligini oshirishda ahamiyatli mexanizm sifatida xizmat qiladi [1].

Shuningdek, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan 2021-yilda qabul qilingan namunaviy nizom korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalarining faoliyatini tartibga solishda muhim huquqiy asos sifatida namoyon boʻladi. Mazkur hujjat davlat va xoʻjalik boshqaruvi organlarida ichki nazoratni samarali tashkil etishga yoʻnaltirilgan [2]. Bundan tashqari, davlat organlari va davlat ulushi yuqori boʻlgan korxonalar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti belgilanib, ularning ochiqlik va shaffoflik darajasini oshirishga xizmat qilmoqda [3].

2023-yilda qabul qilingan hujjat esa davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan rasmiy safarlar va tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin boʻlgan sovgʻalar qiymati hamda ularni tasarruf etish tartibini aniq belgilab berdi. Bu manfaatlar toʻqnashuvining oldini olishda muhim qadam hisoblanadi [4].

Prezident farmonlari ham korrupsiyaga qarshi kurashishda tizimli yondashuvni taʼminlamoqda. Jumladan, 2019-yildagi PF-5729-sonli farmonda davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari belgilandi [5]. 2020-yilda qabul qilingan PF-6013-sonli farmon esa barcha davlat organlarida ichki komplayens nazorat tizimini joriy etish vazifasini qatʼiy belgilab, korrupsiya xavflarini oldindan aniqlash va ularni bartaraf etish imkoniyatlarini kengaytirdi [6].

Shu bilan birga, 2017-yilda qabul qilingan Harakatlar strategiyasi mamlakatda islohotlarning huquqiy asosini shakllantirib, korrupsiyaga qarshi kurashish hamda davlat boshqaruvida ochiqlikni taʼminlashni ustuvor vazifa sifatida belgiladi [7].

### **METODOLOGIYA**

Ushbu tadqiqot ishi tijorat banklarida komplayens nazorat tizimini tashkil etishning huquqiy asoslarini oʻrganishga qaratilgan boʻlib, kompleks ilmiy usullar qoʻllanildi. Avvalo, normativ-huquqiy tahlil usuli orqali Oʻzbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan qonunlar, Prezident farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi hujjatlari hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish

agentligi buyruq va nizomlari o'rganildi [1],[2],[5]. Bu orqali bank sohasida komplayens tizimini joriy etish va rivojlantirishning huquqiy poydevori hamda uning amaliyotdagi o'rni aniqlandi.

Ikkinchidan, taqqoslama tahlil usulidan foydalanilib, O'zbekistondagi komplayens nazorat tizimi xorijiy mamlakatlar, xususan, Bazel qo'mitasi tavsiyalari asosida shakllantirilgan xalqaro standartlar bilan solishtirildi. Bu jarayonda rivojlangan mamlakatlarda bank komplayens tizimini joriy etish tajribasi, uning korrupsiyaga qarshi kurashish va korporativ boshqaruvni takomillashtirishdagi ahamiyati tahlil qilindi.

Shuningdek, tizimli tahlil usuli orqali korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi joriy etilgan tijorat banklarining faoliyat samaradorligi o'rganildi. Mazkur usul banklarda xavf-xatarlarni boshqarish, ichki audit va korporativ boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishda komplayens tizimining roli va ta'sirini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotda, shuningdek, mantiqiy tahlil va sintez usullari qo'llanilib, normativ-huquqiy asoslar hamda amaliyotdagi islohotlar o'rtasidagi bog'liqliklar ochib berildi. Ushbu metodologik yondashuvlar tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va amaliy ahamiyatini ta'minlaydi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida iqtisodiyotning barcha sohalarida komplayens nazorat tizimini jadallashtirish uchun qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, bank sohasiga oid 4 ta qonun loyihasi, 1 ta Prezident qarori loyihasi, 4 ta nizom loyihasi hamda 10 ta ichki nizom ishlab chiqildi. Shuningdek, 26 ta vazirlik va idorada komplayens nazorat tizimi joriy etilmoqda. Ushbu sa'y-harakatlar natijasida O'zbekiston uzoq muddatli ijobiy dinamikani namoyon etuvchi 20 talik davlatlar qatorida e'tirof etila boshladi.

“Transparency International” xalqaro tashkilotining korrupsiyaga oid indeksiga ko'ra, 2010-yildan buyon mamlakatimiz o'z mavqeyini izchil yaxshilab kelmoqda. 2010-yilda 16 ball bilan 172-o'rinda turgan bo'lsa, 2020-yilga kelib 25 ball bilan 180 davlat ichida 153-o'rinda qayd etildi.

Komplayens nazorat tizimini tashkil etishning huquqiy asoslarini yaratish borasida bir qator normativ-huquqiy hujjatlar amaliyotga joriy qilindi. Mazkur sohaning rivojlanishiga davlat rahbarining bevosita e'tibor qaratayotgani uning taraqqiyoti uchun muhim omil sanaladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida “Jamiyatimizda korrupsiya illati o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi”, deya ta'kidlangan. Prezidentning bu masalaga omma e'tiborini qaratishi korrupsiyaga barham berish davlat siyosatida nechog'liq ustuvor ekanini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni ushbu yo'nalishdagi amaliy

qadamlarning yorqin tasdig'idir. Hujjat bilan 2020–2021-yillarda barcha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimini bosqichma-bosqich joriy etish vazifasi belgilandi.



O'zbekiston Respublikasining "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida" qonuni



O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning xuquqlarini ximoya qilish to'g'risida" gi qonuni;



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-dekabrda PQ-4075-son "Jamoat xavfsizligini ta'minlash samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarori;



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-son "O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Farmoni



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyuldagi PF-6019-son "Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Farmoni



Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalari



Bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risidagi nizom

## **1-rasm. Tijorat banklarida komplayens nazorat tizimini tashkil etishning huquqiy asoslari<sup>1</sup>**

Xorijiy amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, bozor iqtisodiyoti qonunlariga asoslangan mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat va xususiy sektor ishtirokchilarining xalqaro standartlar hamda qonun hujjatlariga muvofiq samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi eng muhim vositalardan biri — bu

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazorat tizimidir. Ushbu yondashuv davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini xalqaro standartlar, qonun va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etish, korrupsiya xavf-xatarlarini o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish hamda huquqbuzarliklar haqida xabar berishni o‘z ichiga olgan profilaktik mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklarida komplayens nazorat tizimini joriy etish korrupsiyaviy xavf-xatarlarni oldindan aniqlash va bartaraf etishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari asosida qabul qilingan chora-tadbirlar banklar faoliyatida shaffoflikni ta‘minlash, ichki auditni kuchaytirish va korporativ boshqaruvni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Xorijiy tajriba esa ushbu tizimning bank sektori raqobatbardoshligi va barqarorligini ta‘minlashdagi muhim ahamiyatini tasdiqlaydi (1-rasm).

Mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarni strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish, huquqbuzarliklarning oldini olish, profilaktika qilish va bartaraf etish bo‘yicha idoraviy nazoratning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining samaradorligini oshirish masalalari belgilangan (Farmon, 2017). Ushbu hujjat ushbu muammoni hal etishda muhim o‘rin egallaydi.

Bundan tashqari, 2020-yil 11-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining korrupsiyaga qarshi kurashish va jamoatchilik nazorati tizimlarini takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi bilan hamkorlikda vazirliklar, kompaniyalar va hokimliklarda ichki korrupsiyaga qarshi choralarni ishlab chiqish va amalga oshirishga qaratilgan “komplayens audit” tizimini joriy etish vazifasi qo‘yildi.

Bu borada amalga oshirilgan muhim islohotlardan biri — “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunga (2019) kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalardir. Unga ko‘ra, majburiy auditorlik tekshiruvini o‘tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga to‘lanadigan eng ko‘p haq miqdorini tasdiqlash hamda u bilan shartnoma tuzish (yoki bekor qilish) masalalari aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan hal etiladi. Shuningdek, aksiyalari fond birjasining kotirovka varag‘iga kiritilgan aksiyadorlik jamiyatlarida faqat kuzatuv kengashi a‘zolaridan iborat audit qo‘mitasi tashkil etilishi shartligi belgilandi. Jamiyatning ichki audit xizmati (agar mavjud bo‘lsa) o‘z faoliyatida ushbu qo‘mitaga hisobdor bo‘lishi tartibi joriy etildi.

“Komplayens-nazorat” tizimi bo‘yicha Qonunda jamiyatning moliya-xo‘jalik faoliyatini nazorat qilish uchun aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan bir yil muddatga saylanadigan Taftish komissiyasi tashkil etilishi belgilangan. Ushbu komissiya jamiyat hisobotlari va moliyaviy hujjatlaridagi ma‘lumotlarning ishonchliligi, buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni taqdim etish tartibiga rioya etilganligi, shuningdek qonun va jamiyat ustaviga muvofiqlikni

baholaydi. Aktivlari eng kam ish haqi miqdorining yuz ming barobaridan ko‘proq bo‘lgan jamiyatlarda esa kuzatuv kengashiga hisobdor bo‘lgan ichki audit xizmati faoliyat yuritadi. U qonun hujjatlariga, jamiyat ustaviga va boshqa hujjatlarga rioya etilishini, moliyaviy hisobotlarda ma’lumotlarning to‘liq va ishonchli bo‘lishini, xo‘jalik operatsiyalarining belgilangan tartibda amalga oshirilishini hamda aktivlar saqlanishini tekshiradi va monitoring olib boradi. Shuningdek, auditorlik tashkilotlari shartnoma asosida jamiyatning moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshiradi va auditorlik xulosasini taqdim etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni; O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni (yangi tahriri 2014-yil 6-may, № ZRU-370, o‘zgartirishlar 2019-yil 21-martda kiritilgan).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida bank sektorini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari belgilandi. Unga ko‘ra, kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlarining mo‘tadil o‘sishini ta‘minlash, muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish, xalqaro tajribaga ega menejerlarni jalb qilish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash vazifalari belgilandi.

Shuningdek, mazkur farmon bilan banklarda nazorat mexanizmini takomillashtirishga oid quyidagi vazifalar belgilangan:

- banklarga nisbatan xalqaro e‘tirof etilgan minimal standartlar va talablarni belgilash uchun normativ va nazorat bazasini qayta ko‘rib chiqish;
- normativ-huquqiy hujjatlarni Bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasining tavsiyalarini hisobga olgan holda ishlab chiqish va tasdiqlash;
- samarali nazorat uchun kuzatuv kengashlari huzurida maxsus qo‘mitalarni tashkil etish;
- tavakkalchilikka yo‘naltirilgan nazoratni qo‘llash;
- nazorat faoliyatiga jalb etilgan xodimlarning salohiyatini doimiy va tizimli ravishda oshirish.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyuldagi “Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-6019-son farmoniga muvofiq, 2021-yil 1-yanvardan boshlab tajriba (sinov) tariqasida monopoliyaga qarshi kompayens tizimi joriy etiladigan davlat ishtirokidagi korxonalar ro‘yxatidan “Asaka” aksiyadorlik tijorat banki o‘rin olganligi ham respublikamiz tijorat banklarida kompayens-nazorat tizimini rivojlantirishga ustuvorlik berish vaqti yetganligidan dalolat beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarida komplayens-nazorat tizimini joriy etish nafaqat korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish, balki korporativ boshqaruvni rivojlantirish va bank faoliyatida shaffoflikni ta'minlashda ham muhim omil hisoblanadi. Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar tizimli asos bo'lib xizmat qilmoqda. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, bu sohadagi islohotlarning samaradorligini oshirish uchun kadrlar salohiyatini kuchaytirish, xorijiy tajribaga asoslangan ilg'or standartlarni joriy etish va nazorat jarayonlarini avtomatlashtirish zarur. Shu bilan birga, komplayens tizimi faqat ichki nazorat vositasi sifatida emas, balki bank mijozlari va hamkorlari ishonchini oshiradigan, barqaror rivojlanishga xizmat qiladigan muhim boshqaruv mexanizmi sifatida shakllanishi lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda 829-sonli «Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qarori. <https://lex.uz/docs/-5193571>

2. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining 2021 yil 8-sentyabrda «Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash to'g'risida»gi buyrug'i (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021 yil 8-sentyabrda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3319) <https://lex.uz/docs/-5621185>

3. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan, ularning hududiy bo'linmalari, davlat unitar korxonlari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyotini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori (Adliya vazirligi tomonidan 2022 yil 31 avgustda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3383) <https://www.lex.uz/uz/docs/-6178891>

4. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining «Davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo'lgan sovg'a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi buyrug'i (Adliya vazirligi tomonidan 2023 yil 13 martda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3425) <https://lex.uz/uz/docs/6405394>

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 mayda PF-5729-son «O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-4355387>

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi PF-6013-son «O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-4875784>

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. (O‘R QHT, 37-son, 982-modda; QHMMB, 31.07.2018 y., 06/18/5483/1594-son). <http://lyex.uz/docs/3107036>



# Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhah:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2025-yil, iyul, 7-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOST 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**